

“BOBURNOMA” TA’SIRIDA YOZILGAN TARIXIY ASARLARNING MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Sitora Tojiddinova, O‘zFA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot
muzeyi doktoranti

TEXT-COMPARATIVE STUDY OF HISTORICAL WORKS WRITTEN UNDER THE INFLUENCE OF “BABURNAMA”

Sitora Tadjiddinova, Doctoral student of the the Alisher Navoi State
Museum of Literature, Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

ТЕКСТОВО-СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ, НАПИСАННЫХ ПОД ВЛИЯНИЕМ “БАБУРНАМЕ”

Ситора Таджиддинова, докторант государственного музея
литературы имени Алишера Навои Академии Наук РУз



<https://orcid.org/0009-0001-7505-3225>

e-mail:
sitora.shamsiddin@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari ta’sirida, undan ilhomlanib yoki foydalanib yozilgan bir necha asarlar haqida so‘z boradi. Ularning ta’sirlanish tamoyillari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: “Boburnoma”, matn, qiyos, “Humoyunnoma”, tarixiy asar.

Abstract: This article discusses several works influenced, inspired or based on Zakhir al-Din Muhammad Babur's “Baburnama” and reveals the principles of their influence.

Key words: Baburnama, text, comparison, Humayunname, historical work.

Аннотация: В данной статье рассматриваются несколько произведений, написанных под влиянием, вдохновленных или основанных на произведении Захириддина Мухаммада Бабура “Баburname”. Раскрыты принципы их влияния.

Ключевые слова: “Баburname”, текст, сравнение, “Хумаюнname”, историческое сочинение.

KIRISH. Sharq mumtoz adabiyotida “Boburnoma” yaratilgunga qadar ham ko‘plab nasr namunalari bo‘lgan. Ularning aksariyatida uslub, tarkib, janr xususiyatlariga ko‘ra forsiy an‘analardavom ettirilgan bo‘lib, hamd, payg‘ambarlar tarixi, o‘z davrigacha bo‘lgan hukmdorlarning tavsifu ta’rifiga katta o‘rin ajratilgan. Ammo garchi ushbu an‘analarni puxta o‘rgangan bo‘lsa-da, Zahiriddin Muhammad Bobur bu yo‘ldan bormaydi. O‘g‘li Humoyun Mirzoga yozgan maktubida aytganidek, ortiqcha jimjimalarsiz, “betakalluf va ravshan va pok alfoz bila bitmoq”ni maqsad qiladi[13]. Uning badiiy niyati quyidagi jumalalarda tugal aks etgan: “Bu bitilganlarning g‘araz shikoyat emas, rost

hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo‘lg‘onlarning maqsud o‘zining ta’rifi emas, bayoni voqei bu edikim, tahrir etibturmen”[13]. Rostlik ahdini asar nihoyasigacha mahkam tutgan adib bayon uslubi, tili, matn tarkibiga ko‘ra, yaratilajak ko‘plab asarlar uchun yangi yo‘l ochib berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ta’kidlaganidek, “Bevosita mazkur asar ta’sirida Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Gulbadanbegrinning “Humoyunnoma”si kabi bir qancha tarixiy asarlar bitilgan”[2]. “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarini qiyosiy aspektida o‘rgangan adabiyotshunos olim I.Hazratqulova

shunday xulosa chiqaradi: “Tarixi Rashidiy” matni-ning ko‘plab badiiy belgilari va ifoda xususiyatlarini tekshirish asnosida asarda “Boburnoma” mazmunidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri adabiy ta’sirlanish holatlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu holat ma’lum bir shaharlarning mumtoz tasviri, tarixiy shaxslarning obraz darajasida yorqin aks etishi, muallif ruhiy kechinmalarining samimiy ifodasi, badiiy lavhalarning yetukligida ko‘rinadi”[6].

“Boburnoma” tipidagi nasr namunalari haqida gap ketganda, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”sini, albatta, eslash joiz. Ushbu nodir tarixiy manbaning aynan “Boburnoma” ta’sirida yozilganini ko‘plab olimlarimiz ta’kidlashgan. Jumladan, bu borada adabiyotshunos olim S.Azimjonova quyidagicha fikr bildirgan: “Nodir ma’lumotlarga to‘la bu asar o’sha zamonda yozilgan boshqa tarixiy asarlardan ajralib turadi. “Humoyunnoma” uslubi va voqealar bayonini “Boburnoma” bayoniga solishtirsak, bu har ikkala asar uslubining bir-biriga nihoyatda yaqinligiga guvoh bo‘lamiz. Chunki, Gulbadanbegim “Boburnoma” uslubiga ergashgan va o‘z asari “Humoyunnoma”ni “Boburnoma” mazmuni va uslubiga taqlid qilib yozgan”[1].

MUHOKAMA. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asarini ham “Boburnoma” ta’sirida yozilgan asarlar sirasiga kiritish mumkin. Bu haqda tadqiqotchilar “Muallif o‘zidan ilgari o‘tgan mashhur tarixchilar: Rashididdin, Mirxond, Sharofiddin Ali Yazdiy va Abulhasan Nishopuriy asarlariga tayanganini ochiq aytadi. Undan tashqari Narshaxiyning mashhur “Tarixi Buxoro”, Juvayniyning “Tarixiy Jahonkushoyi”, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixiy Rashidiy” va Koshifiyning “Rashoxotu ayn ul-hayot” va boshqa asarlardan ham foydalanilgan” deyishadi. “Tarixi Rashidiy”ning ushbu asarga ta’siri ilmiy isbotlangan ekan, “Boburnoma”ning ta’siri haqida hech qanday shubhaga o‘rin yo‘q. Zotan, “Tarixiy Rashidiy”ning o‘q ildizi “Boburnoma”dir. “Vaqoye” tipidagi yana bir tarixiy asar “Akbarnama” hisoblanadi. U “Tarixi Akbarshohiy”, “Tarixi Akbariy” nomi bilan ham mashhur. Shu o‘rinda ta’kidlash kerak: adabiyot tarixida “Boburnoma” tipida yaratilgan asarlar bishyor. Hind tarixchisi L.P.Sharma “Boburnoma”-ning bevosita yoki bilvosita ta’sirida yaratilgan bir necha asarlarni sanaydi: “Gulbadan begimning “Humoyunnoma”, Abul Fazlning “Akbarnama” va “Oyini Akbariy”, Nizomiddin Ahmadning “Tabakoti Akbariy”, Javhar Oftobachining “Tazkiratu-l-

voqeot”, Abbos Sarvoniyning “Tuhfai Akbarshohiy”, Boyazid Sultonning “Tarixi Humoyun”, Fayzi Sarxindiyning “Akbarnama” kabi asarlari Akbarshoh davrida yaratilgan. Jahongirshoh davrida uning o‘zi boshlagan va Mu’tamidxon yakunlagan “Tuzuki Jahongiriy” asaridan tashqari Mu’tamidxon yana “Iqbolnomai Jahongiriy” asarini ham yaratdi. Shu bilan bir qatorda Xo‘ja Kamgorning “Muassiri Jahongiriy” asari, Ne’matullohning “Makazzami Afg‘oniy” asari, Muhammad Kosim Farishtaning “Tarixi Farishta” asari, Mulla Nahvandiyning “Massiri Rohiniy” kabi asarlari Jahongirshoh davrida yaratilgan. Shohjahon davrida yaratilgan asarlar orasida Abdulhamid Loxuriy va Amin Qazviniyning “Podshohnoma” nomli asari, Inoyatxonning “Shohi jahonnoma” va Muhammad Solihning “Amali Solih” kabi asarlari alohida o‘rin tutadi. Ular orasida Mirzo Muhammad Qosimning “Muntahabu-l-lubob” va “Olamgirnoma”, Muhammad Soqiyning “Nusxai Dilkusho”, hind tarixchilari Ishvar Dasning “Fotihoti Olamgiri”, Sujan Rayning “Xulosatu-t-tavorix” kabi asarlari mashhur bo‘lgan”[10]. Albatta, boburiylar davrida yaratilgan bu asarlar uchun namuna sifatida ushbu buyuk imperiyaning asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari asosiy mezon bo‘lib turganiga shubha yo‘q. Ayni shunga yaqin fikrni adabiyotshunos A.Madrahimov ham ta’kidlab o‘tadi: “Zahiriddin Muhammad Boburning “Vaqoe” – “Boburnoma” asari o‘z davrida va keyinchalik XVI-XIX asrlarda Hindistondagi tarixnavislikka juda katta ijobiy ta’sir o‘tkazgan. Boburning safdoshlari Shayx Zayn Hafoviy va G‘iyosiddin Xondamir unga ergashib, “Hindistonning zabt etilishi” va “Qonuni Humoyuniy” asarlarini yaratganlar. Boburning xolavachchasi Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy”, qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” asarini yaratgani ma’lum. Keyingi davr, ya’ni XVI asrdan boshlab barcha Shimoliy Hindiston tarixchilari “Boburnoma”ga murojaat qilganlar” [7].

NATIJALAR. Albatta, Boburiylar saltanatida yaratilgan barcha tarixiy asarlarda bosh manba vazifasini “Boburnoma” bajarganiga shubha yo‘q. Ammo bu saltanatdan uzoqda bo‘lgan Xorazmshohlar davlatiga doir bir asar borki, unga ham “Vaqoe”ning ta’sirini fahmlash mumkin. Gap Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari haqida. H.Xudoynazarovning “Shajarayi turk” va

uning o'rganilishi" kitobida bu ikki asarning o'xshashligi va "Boburnoma"ning ta'siri borasida ilmiy dalillar berilgan[13]. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, "Boburnoma" nafaqat Sharq adabiyoti tarixiga, balki G'arb adabiyotiga ham chuqur ta'sir o'tkaza olgan. "Ma'lumki, Beverij xonim dastlab Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarini ingliz tiliga o'giradi va Angliyada 1902-yili chop ettiradi. Uning eri Henri Beverij esa xuddi shu yili "Akbnoma"ni ingliz tiliga tarjima qilgan, Beverij xonimga esa turkiy tilni yaxshi bilgani uchun "Boburnoma"ning Haydarobodidagi nusxasini topib, tarjima qilish uchun topshirgan edi"[9].

"Boburnoma" ingliz tiliga tarjima qilingach, "Bobur shaxsiga Yevropa olamida qiziqish ortib, bu ijodkorlar qalb-u ongiga ham ta'sir o'tkazmay qolmadi. Boburni tanigan, uning dunyosini tasavvur qila boshlagan va bularni o'zining qalb prizmasidan o'tkazgan ijodkorlarning asarlari namoyon bo'la boshladi. Ulardan biri ingliz adibi Flora Anna Stil qalamiga mansub "Jahongashta hukmdor" asaridir", deya ma'lumot beradi adabiyotshunos olim K.Mullaxo'jayeva, "Jahongashta hukmdor" asarini Flora Anna Stil umrining so'nggi yillarida yozgan. U Boburning hayoti, uning asarlari, xususan, "Boburnoma" va "Humoyunnoma"dan ta'sirlanib yozilgan realistik badiiy asardir"[9]. Aslini olganda, ingliz tilida ham, boshqa Yevropa tillarida ham Mirzo Bobur haqida juda ko'p asarlar yaratilgan. Bu haqda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi raisi Z.Mashrabov quyidagicha ma'lumot bergan: "...Qomusiy daho haqida yuzlab roman, qissa, doston, esse va boshqa janrlarda o'ndan ortiq mamlakatlarda badiiy asarlar yozilgani bizga ma'lum. Jumladan, Flora Enni Stilning "Tojkor darvesh" romani ingliz tilida, avstriyalik adib Frits Vyurtle "Andijon shahzodasi" qissasi, amerikalik Aleks Raterfordning "Jannatga qasida" tarixiy romani va boshqa asarlar xorijiy tillardan o'zbek va rus tillariga tarjima etilib, e'lon qilingan"[8]. Jahon adabiyotida "Boburnoma" ta'sirida yozilgan asarlar haqida gap ketganda, Harold Albert Lamb "Bobur-yo'lbars" asari, Rumer Godenning "Gulbadan" [5], Vilyam Rashbrukning "O'n oltinchi asr bunyodkori" [11] va Fris Vyurtlening "Andijon shahzodasi"[4] asarlarini ham alohida ta'kidlash kerak.

XULOSA. Shuni alohida zikr etmoq joiz: adabiyot tarixida bugungi kunga qadar "Boburnoma" ta'sirida yozilgan asarlar ko'pligi

aniq, ammo ularning soni borasida aniq fikr aytish dushvor. Sababi, ijod harakatidagi jarayon. Biz tadqiq davomida uchratmagan yoki topolmagan, e'tibordan chetda qoldirgan asarlar bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda ushbu maqoladagi fikrlarimizni tugal xulosa o'rinda qabul qilmaslik lozim. Zotan, insoniyat yashar ekan, adabiyot ham doimiy harakatda bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Azimjonova S. "Humoyunnoma" va uning muallifi Gulbadanbegim// Humoyunnoma. – Toshkent. Ma'naviyat. 1998. – B.5.
2. Eyji Mano. Yapon olimining Mirzo Boburga maktubi. // Ma'naviy hayot. — Toshkent, 2014.
3. Fris Vyurtle. Andijon shahzodasi (Bobur – yo'lbars). Sarguzasht-qissa. Olmon tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 2012.
4. Fris Vyurtle. Andijon shahzodasi («Bobur – yo'lbars»). Sarguzasht-qissa. Olmon tilidan Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 2012.
5. Goden Rumer. Gulbadan. Zahiriddin Muhammad Boburning qizi malika Gulbadan begim shaxsiga chizgilar. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 176.
6. Hazratqulova I. Adabiy-tarixiy asarlarda badiiy ijod masalalari (Boburnoma va Tarixi Rashidiy asosida). filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2000. – B.165.
7. Madrahimov A. Yigirmanchi asrda "Boburnoma"//Bobur abadiyati. Toshkent: Bayoz, 2018. – B. 359.
8. Mashrabov Z. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining o'rganilishi masalalari // Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni. – Toshkent, 2023.
9. Mullaxo'jayeva K. Sezarga qaraganda u sevisga arzigulikdir.// Ma'naviy hayot. – Toshkent, 2023. №2. – B.20.
10. Sharma L.P.Boburiylar saltanati//Xorijda boburshunoslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – B. 95-96.
11. Vilyam Rashbruk. O'n oltinchi asr bunyodkori. Inglizchadan G'.Satimov,X.So'fiyeva tarjimasi. – Toshkent.: Sharq, 2011. – B. 207.
12. Xudoynazarov H. "Shajarayi turk" va uning o'rganilishi. T.: O'qituvchi, 1993. – B.128.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Nashrga tayyorlovchi: Porso Shamsiyev.— T.: Yulduzcha, 1989.